

AZIM SUYUNNING BADIY MAHORATI VA USLUBIY O‘ZIGA

XOSLIGI

Safarova Madina Vali qizi

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: safarova178@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22641391>

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Azim Suyun ijodining badiiy mahorati, uslubiy o‘ziga xosligi va poetik qudrati tahlil qilingan. Maqolada shoir she’riyatiga xos bo‘lgan xalqchillik, ohangdorlik, nozik lirizm, shuningdek, isyonkorlik ruhi va chuqur falsafiy mushohadalar ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Muallif shoirning “Bugun gulgun”, “O‘zbekim” hamda “Dono” kabi she’rlarini tahlil qilish orqali Azim Suyunning inson ruhiyati, vaqtning o‘tkinchiligi, milliy g‘urur hamda jamiyatdagi adolat va adolatsizlik masalalarini sodda, tushunarli va ta’sirchan xalqona tilda badiiy aks ettirish mahoratini ochib bergan.

Kalit so‘zlar: Azim Suyun, o‘zbek she’riyati, badiiy mahorat, uslub, xalqchillik, lirizm, ohangdorlik, falsafiy mushohada, isyonkorlik ruhi, milliy g‘urur.

Аннотация: В данной статье научно анализируется художественное мастерство, стилистическое своеобразие и поэтическая сила творчества известного узбекского поэта Азима Суюна. В работе освещаются такие характерные черты поэзии автора, как народность, музыкальность, тонкий лиризм, а также бунтарский дух и глубокие философские размышления. На примере анализа стихотворений «Bugun gulgun» («Сегодня розов...»), «O‘zbekim» («Мой узбек») и «Dono» («Мудрец») раскрывается мастерство поэта в художественном отображении человеческой психологии, скоротечности времени, национальной гордости, а также вопросов справедливости и несправедливости в обществе простым, понятным и выразительным народным языком.



Ключевые слова: Азим Суюн, узбекская поэзия, художественное мастерство, стиль, народность, лиризм, музыкальность, философские размышления, бунтарский дух, национальная гордость.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the artistic skill, stylistic uniqueness, and poetic power in the creative heritage of the renowned Uzbek poet Azim Suyun. The paper highlights key characteristics of the poet's works, such as folklore reliance, melodic richness, subtle lyricism, rebellious spirit, and profound philosophical reflections. Through the analysis of poems such as "Bugun gulgun", "O'zbekim", and "Dono", the author reveals Azim Suyun's mastery in depicting human psychology, the transience of time, national pride, as well as themes of justice and injustice in society using simple, accessible, and emotionally resonant folk language.

Keywords: Azim Suyun, Uzbek poetry, artistic skill, style, folklore influence, lyricism, melody, philosophical reflection, rebellious spirit, national pride.

“Bugungi o‘zbek she’riyati kamalakdek serjilo. Uning vujud-vujudiga umuminsoniy g‘oyalar toboro ko‘proq, chuqurroq singib, teranlashib, falsafiy mushohadalarga to‘lishib borayotir”, – deyiladi “Hurmat ko‘p buyukdir inson zotiga” maqolasida¹. O‘zbek she’riyatining mardona va isyonkor ovozi sifatida tanilgan Azim Suyun ijodi o‘zining xalqchilligi, ohangdorligi hamda tabiat bilan inson o‘rtasidagi sirli aloqalarni teran badiiy talqin etishi bilan alohida ajralib turadi. Shoirning she’rlari oddiy tuyg‘ular tasviri bilan cheklanib qolmay, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi. U o‘z asarlari orqali milliy ruhni uyg‘otish, inson qalbida erkinlik va haqiqatga intilish tuyg‘ularini mustahkamlashga erishgan.

Azim Suyun ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning xalqchilligidir. “Ma’lumki, Azim Suyun – poetik fikri xalqona, ifoda yo‘rig‘ida ham

¹ Воҳидов Р., Ҳошимова М. Шеърят – шоир юраги. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 8.



xalqchillik bo'rtib turadigan shoir. Uning ko'pchilik she'rlari xalq aytimlari kabi soddavash, ular singari teran, ularday yuqumli", – deydi professor Qozoqboy Yo'ldoshev². Shoir tilni murakkablashtirmasdan, xalqona iboralar, jonli obrazlar orqali o'quvchiga yaqinlashadi. Natijada uning she'rlari nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki keng omma uchun ham tushunarli va ta'sirchan bo'lib tuyuladi. Bu jihat shoirni xalq qalbiga yaqinlashtiradi, uni "xalq shoiri" darajasiga olib chiqadi. "Bugun gulgun" nomli she'ri:

*Bugun gulgun, gul-gul yuzlaring,
Bugun gul-gul, bilmam, ertaga.
Soching sunbul, bulbul so'zlaring,
Bugun Gul, kul...bilmam, ertaga.*

*Qaydan keldim, qayga keturman,
Bu dunyoda men nega ega?!
Kel, kel, so'zim bugun ayturman,
Ayturmanmi?.. bilmam, ertaga...*³

Azim Suyunning ushbu she'ri nozik lirizm va chuqur falsafiy mushohadaga boy bo'lib, unda inson hayoti, go'zallik va vaqtning o'tkinchiligi o'ziga xos badiiy ifoda topgan. Shoir dastlab yorning husnini tasvirlashdan boshlaydi: "*Bugun gulgun, gul-gul yuzlaring*" misrasi orqali u yor chehrasini gulga qiyoslaydi, bu esa yoshlik, latofat va hayotiylik ramzidir. Keyingi misrada esa shu go'zallikning barqaror emasligi ta'kidlanadi: "*Bugun gul-gul, bilmam, ertaga*" – ya'ni bugungi go'zallik ertaga saqlanib qoladimi-yo'qmi, bu noma'lum. Shu tarzda shoir vaqtning beqarorligini nozik tarzda his qildiradi.

² Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2006. Б. 310.

³ Суюн Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 222.

"Soching sunbul, bulbul so'zlaring" misrasida esa yorning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki go'zalligi ham madh etiladi. "Sunbul" va "bulbul" obrazlari orqali nafislik, yoqimlilik va joziba ifodalanadi. Ammo darhol ortidan kelgan *"Bugun Gul, kul... bilmam, ertaga"* satri bu go'zallikning o'tkinchi ekanini yanada keskinroq ochib beradi. "Gul" va "kul" qarama-qarshiligi hayot va so'nish, mavjudlik va yo'qlik o'rtasidagi nozik chiziqni anglatadi.

She'rning ikkinchi qismi esa yanada chuqur falsafiy ruhga kiradi. *"Qaydan keldim, qayga keturman"* misrasi orqali shoir insoniyatni azaldan o'ylantirib kelgan savolni qo'yadi: insonning kelib chiqishi va borar manzili nima? "Bu dunyoda men nega ega?!" degan savol esa insonning yashashdan maqsadini anglashga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Bu savollar javobsiz qoladi, lekin aynan shu javobsizlik she'rning falsafiy og'irligini kuchaytiradi.

So'nggi misralarda shoir bugungi lahzaning qadriga yetish zarurligini urg'ulaydi: *"Kel, kel, so'zim bugun ayturman"* – bu yerda u kechiktirmaslikka, his-tuyg'ularni vaqtida izhor etishga chaqiradi. Ammo *"Ayturmanmi?.. bilmam, ertaga"* degan yakun yana o'sha noaniqlikni qaytaradi. Bu bilan shoir inson hayotining ertangi kuni kafolatlanmaganini, shuning uchun bugungi kun eng qadrli lahza ekanini uqtiradi.

Umuman olganda, she'rning asosiy g'oyasi – hayot, go'zallik va muhabbatning o'tkinchi ekanini anglab, hozirgi lahzani qadrlash, ichki tuyg'ularni kechiktirmay ifoda etishdir. Shoir o'quvchini o'yga toldiradi: ertaga noma'lum, demak inson bugun yashashi, sevishi va aytishi kerak. Azim Suyunning ushbu she'rida xalqchillik eng avvalo uning sodda, ravon va yurakka yaqin tilda yozilganida namoyon bo'ladi. Shoir murakkab, tushunarsiz iboralar o'rniga har bir o'quvchiga tanish bo'lgan "gul", "kul", "sunbul", "bulbul" kabi obrazlardan foydalanadi. Bu so'zlar xalq og'zaki ijodida ham keng uchraydigan timsollar bo'lib, ular orqali she'r mazmuni oson anglashiladi va tez yodda qoladi.

She'rdagi ishlatilgan ifodalar sun'iy emas, balki tabiiy va jonli. Masalan, *"Bugun gul-gul, bilmam, ertaga"* yoki *"Ayturmanmi?.. bilmam, ertaga"* kabi misralar oddiy insonning kundalik nutqiga juda yaqin. Bu esa she'rni o'qiyotgan odamda "bu mening o'yim, mening gapim" degan tuyg'uni uyg'otadi. Shoir aynan shu sodda ohang orqali katta falsafiy fikrlarni xalqona uslubda yetkazishga erishadi.

Qisqa qilib aytganda, she'rning xalqchilligi uning sodda va tushunarli tili, hammaga tanish obrazlar, samimiy ohang va yurakka yaqin ifodalar orqali yuzaga chiqadi. Shoir murakkab fikrlarni oddiy misralar bilan chiroyli va ta'sirli tarzda ifodalab, uni keng o'quvchilar qatlamiga yaqinlashtirgan.

Azim Suyun badiiy mahoratining yuksakligidagi ikkinchi muhim jihat – ohangdorlik va musiqiylik. Azim Suyun she'rlarida ritm va ohang uyg'unligi juda kuchli seziladi. Uning misralari o'qilganda nafaqat ma'no, balki ichki musiqa ham eshitilgandek bo'ladi. Bu esa she'rning emotsional ta'sirini yanada kuchaytiradi, o'quvchini ruhiy jihatdan larzaga soladi. "Asl shoir tilsiz narsalarga zabon baxsh eta, ko'z ilg'amaydigan narsalarni ko'rsata biladi"⁴. Azim Suyun ham xuddi shunday shoirlardan. Haqiqiy shoir oddiy inson ko'ra olmaydigan, sezmaydigan jihatlarni his etadi va ularni so'z orqali jonlantiradi. U jimjit tabiatga ovoz beradi, inson qalbinning eng chuqur qatlamlarida yashiringan tuyg'ularni yuzaga chiqaradi. Shoir uchun borliqdagi har bir narsa – daraxt bargidan tortib, shamolning mayin esishigacha ma'no kasb etadi va she'r orqali yangi hayot topadi.

Azim Suyun ham ana shunday iste'dodli ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida hayotning oddiy ko'rinishlari teran falsafiy mazmun bilan boyitiladi. Shoir ko'pchilik e'tibor bermaydigan holatlarni o'ziga xos badiiy nigoh bilan yoritadi, ko'z ilg'amagan manzaralarni qalb ko'zi bilan ko'rsatadi. Uning ijodida tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi nozik bog'liqlik chuqur his etiladi. Shu bois uning she'rlarini o'qigan kitobxon nafaqat estetik zavq oladi, balki hayotga boshqacha nigoh bilan qarashni ham o'rganadi. "Haqiqiy she'r o'qilganda qallda

⁴ Йўлдош Қ. Очқич сўз. – Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. – Б. 89.



qoladi, hayotning qaysi bir fursatlarida she'rxon ruhiga suyanch bo'ladi. Insonning ichki olamiga bevosita daxldor, oz bo'lsa-da uning shaxsini balandroq ko'taradigan, asl holidan ko'ra mard, olijanob va kuchliroq bo'lishga da'vat qiladigan poetik qudrat bu – she'r", – deydi Ibrohim Haqqulov⁵. Azim Suyunning "O'zbekim" she'rini o'quvchi maroq bilan o'qiydi:

*O'zbekim o'tmishi – ko'zim gavhari,
Buguni – uyimda porlagan chiroq.
Ertasin o'ylayman bolam singari,
Ertasi Ishongum, baxt kabi oppoq!*⁶

"Haqiqiy she'r o'qilganda qalbda qoladi..." degan fikr Ibrohim Haqqulov tomonidan bejiz aytilmagan. Azim Suyunning "O'zbekim" she'ri aynan shunday poetik qudratga ega asarlardan biridir. Undagi satrlar o'quvchini befarq qoldirmaydi, aksincha, uning qalbida faxr, mehr va ishonch tuyg'ularini uyg'otadi. Shoir o'z xalqining o'tmishini "ko'zim gavhari" deb ulug'laydi, bugunini "uyimda porlagan chiroq" deya ta'riflaydi. Bular orqali o'quvchi qalbida milliy g'urur va minnatdorlik hissi mustahkamlanadi. Eng muhimi, she'rda kelajakka bo'lgan ishonch – "baxt kabi oppoq", ertaga bo'lgan umid juda samimiy va ta'sirchan ifodalangan.

Aynan shu jihatlari bilan mazkur she'r Ibrohim Haqqulov ta'kidlagan haqiqiy she'r mezonlariga to'la mos keladi. U insonning ichki olamiga bevosita ta'sir etadi, uni ruhlantiradi va o'zligini chuqurroq his etishga undaydi. "O'zbekim"ni o'qigan kitobxon nafaqat estetik zavq oladi, balki qalban yuksaladi, o'z xalqiga, uning o'tmishi va kelajagiga nisbatan yanada mehr va ishonch bilan qaray boshlaydi. Shu ma'noda, bu she'r Ibrohim Haqqulov fikrining yorqin isboti, desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁵ Хаққул И. Бадий сўз шукуҳи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1987. – Б. 122.

⁶ Суюн Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 222.

Fikrimizcha, asl shoirning eng katta kuchi – bu oddiylik ichida buyuklikni ko‘ra bilishidadir. Azim Suyun ana shu jihati bilan ajralib turadi: u so‘z orqali ko‘ngilga yetib boradi, o‘quvchini o‘ylashga, his qilishga undaydi. Shuning uchun ham bunday shoirlarning ijodi doimo qadrlanadi, chunki ular inson qalbini boyitadi va borliqni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Azim Suyun ijodiga xos isyonkorlik ruhi ham alohida e’tiborga loyiq. “She’r qalb yolqini, deyishadi. To‘g‘ri. Chin shoirning har bir haq so‘zi o‘quvchi dilidagi adolat, ezgulik yolqinini yanada kuchaytiradi. Va ayni paytda uning xotirasiga favqulodda uyg‘oqlik, dunyoning ulkan haqiqatlarini uyg‘oq vijdon nigohida ko‘rish hislarini ham baxsh etadi”⁷. Azim Suyun fenomeni ham shunday iste’dodlardan biri.

Uning she’rlarida jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik, adolatsizlikka qarshi ichki norozilik, haqiqatni aytish jasorati yaqqol seziladi. Bu isyonkorlik keskin shiorlar orqali emas, balki badiiy obrazlar, ramzlar va chuqur ma’nolar orqali ifodalanadi. Shu bois uning she’rlari o‘quvchini o‘ylashga, mulohaza yuritishga undaydi. Misol uchun “Dono” deb nomlangan to‘rtligida:

Dono – boshin egar bu yurtda,

Nahs – ko‘ksin kerar bu yurtda.

Ahmoq podsho xatosi uchun

*Lashkar javob berar bu yurtda*⁸.

Berilgan she’r jamiyatdagi adolatsizlik, noto‘g‘ri boshqaruv va uning oddiy xalq taqdiriga qanday ta’sir qilishini chuqur ochib beradi. Unda “*dono bosh egadi*” degan misra orqali haqiqatni anglaydigan, uzoqni ko‘ra oladigan insonlar o‘z fikrini erkin ayta olmaydigan muhit tasvirlanadi. “*Nahs ko‘ksin kerar*” degan satr esa aksincha, nodonlik va noto‘g‘ri qarorlar ustun kelayotganini bildiradi. She’rning eng muhim g‘oyasi: hukmdorning xatosi uchun oddiy xalq, ayniqsa lashkar javob beradi.

⁷ Хаққул И. Бадиий сўз шукуҳи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1987. – Б. 122.

⁸ Суюн Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 19.

Bu fikrni tarix, ayniqsa jahon urushlari yaqqol tasdiqlaydi. Birinchi jahon urushi davrida Yevropa davlatlari rahbarlari diplomatik yo'l o'rniga qurolli to'qnashuvni tanladilar. Natijada millionlab insonlar halok bo'ldi. Bu urushda qaror qabul qilgan hukmdorlar emas, balki oddiy askarlar eng katta qurbon bo'ldi.

Xuddi shunday holat Ikkinchi jahon urushi davrida yanada dahshatli ko'rinish oldi. Adolf Gitler ning tajovuzkor siyosati va noto'g'ri strategik qarorlari, jumladan Stalingrad jangi paytidagi qat'iy va xato buyruqlari yuz minglab askarlarning halok bo'lishiga sabab bo'ldi. Chekinishga ruxsat berilmagani tufayli butun qo'shin qurshovda qolib, yo'q qilindi. Bu she'rdagi *"ahmoq podsho xatosi uchun lashkar javob berar"* degan fikrning tarixiy haqiqat ekanini ko'rsatadi. "Hayot va inson tashvishlari bilan yashash, o'ylash shoir ijodiga xos fazilat"⁹.

Eng og'riqli jihatlardan biri shundaki, bu urushlar faqat Yevropa yoki boshqa hududlarga emas, balki bizning yurtimizga ham ta'sir qilgan. O'sha paytda O'zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lganligi sababli, minglab emas, balki millionlab o'zbek yigitlari frontga safarbar etilgan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondan 1,5 milliondan ortiq inson urushga jo'natilgan, ularning juda katta qismi frontlardan qaytib kelmagan. Ular ko'pincha o'z yurtidan uzoqda, o'zlari tanlamagan urushda jon bergan.

Demak, she'r faqat bir davr yoki bir davlat haqida emas. U umuminsoniy haqiqatni ifodalaydi. Agar davlat boshqaruvida adolat va aql ustun bo'lmasa, noto'g'ri qarorlarning eng og'ir yukini oddiy xalq ko'taradi. Jahon urushlari, jumladan O'zbekiston farzandlarining qurbon bo'lishi bu haqiqatning eng achchiq isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воҳидов Р., Ҳошимова М. Шеърят – шоир юраги. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 8.

⁹ Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 19.



2. Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2006.
Б. 310.
3. Суюн Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 222.
4. Йўлдош Қ. Очқич сўз. – Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. – Б.
89.
5. Ҳаққул И. Бадиий сўз шукуҳи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги
нашриёт, 1987. – Б. 122.
6. Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 19.